

# NO‘XAT NAVLARINING SUG‘ORISH TARTIBLARI BO‘YICHA IQTISODIY SAMARADORLIGI

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОРТОВ ГОРОХА В  
ЗАВИСИМОСТИ ОТ РЕЖИМА ОРОШЕНИЯ

ECONOMIC EFFICIENCY OF PEA VARIETIES ACCORDING  
TO IRRIGATION PROCEDURES

*TIQXMMI milliy tadqiqotlar universitetuning  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.*

*Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasи  
Stajyor o‘qituvchisi: Ziyotov Ulug‘bek Amirqul o‘g‘li*

*TIQXMMI milliy tadqiqotlar universitetuning  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.*

*Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasи  
Assistent o‘qituvchisi: Safarova Nilufar Vohidovna*

*TIQXMMI milliy tadqiqotlar universitetuning  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti.*

*Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasи  
Stajyor o‘qituvchisi: Meyliyeva Shoxista Rustamovna*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda dunyoning turli yirik ilmiy-tadqiqot markazlarida no‘xatning ekstremal sharoitlarga chidamli navlarini yaratish, yaratilgan navlarning morfofiziologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning oziqaviylik qiymatini oshirish, hosilining shakllanishi, ekinboplik sifatlarining yetishtirish usullariga bog‘liqligini aniqlash, yetishtirish texnologiyasi elementlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, ularning tuproqni biologik azot bilan boyitishi evaziga unumdarligini oshirish, organik va mineral o‘g‘itlarni tejashga imkon berishi, ushbu muammolarni hal etishda ekinning biologik xususiyatlari, navlarning hududni gidrotermik omillariga reaksiyasi va fotosintetik faoliyatiga bog‘liq tadqiqotlarni chuqurlashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

**Аннотация:** В настоящее время в различных крупных научно-исследовательских центрах мира большое внимание уделяется созданию сортов гороха, устойчивых к экстремальным условиям, изучению морфо-физиологических особенностей созданных сортов, повышению их пищевой ценности, определению зависимости урожайности, качества сельскохозяйственных культур по способам возделывания, а также совершенствованию элементов технологии возделывания. В связи с этим повышение их продуктивности за счет обогащения почвы биологическим азотом, позволяющего экономить органические и минеральные удобрения,

углубление исследований, связанных с биологическими свойствами сельскохозяйственных культур, реакцией сортов на гидротермические факторы местности, а также фотосинтетической деятельности в решении этих проблем считаются актуальными вопросами.

**Annotation:** Currently, in various major scientific and research centers of the world, it is important to create varieties of peas resistant to extreme conditions, to study the morphophysiological characteristics of the created varieties, to increase their nutritional value, to determine the dependence of cropping qualities on cultivation methods, to improve the elements of cultivation technology. attention is paid. In this regard, increasing their productivity by enriching the soil with biological nitrogen, allowing to save organic and mineral fertilizers, deepening the research related to the biological properties of the crop, the reaction of the varieties to the hydrothermal factors of the area, and the photosynthetic activity in solving these problems are considered urgent issues.

**Kalit so‘zlar:** Dukkak, namlik, suv sarfi, rentabl,mineral, organik, reaksiya, morfofiziologik, ekstremal.

**Ключевые слова:** Бобовые культуры, влага, водопотребление, рентабельность, минеральность, органика, реакция, морфофизиология, экстрем.

**Key words:** Legume, moisture, water consumption, profitable, mineral, organic, reaction, morphophysiological, extreme.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, ushbu tarmoqda ilmiy yondoshuvlar va ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, meva-sabzavot, poliz, don va don mahsulotlarini ko‘paytirishga, import-eksport masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada samarasiz g‘o‘za maydonlari qisqartirilib, tok va bog‘zorlar kengaytirilishi bilan birga don dukkakli ekin maydonlari kengaytirilib, yuqori va sifatli mahsulotlar olishga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «.... qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish...» va boshqa vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, aholining don va don mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda turli ekologik sharoitlarga mos no‘xat navlarini tanlash, ularni yetishtirish texnologiyasini nav xususiyatlari asosida muvofiqlashtirish muhim hisoblanadi. Ekish muddati, ayniqsa kuzda ekish muddati va chuqurliklarini to‘g‘ri tanlash orqali o‘simgilikning qishga chidamlilagini oshirish, ulardan yuqori va sifatli don hosiliga erishish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

No'xat ekinidan mo'l hosil olish va undan yuqori iqtisodiy daromad olishda yetishtililadigan navlarning biologik xususiyatlari va ularni yetishtirish agrotexnologiyalari, jumladan sug'orish tartiblari katta amaliy ahamiyatga ega. Serhosil, tashqi muxit ta'siriga bardoshli, qurg'oqchilik va sho'rланish ta'sirlarga chidamli navlardan ko'p iqtisodiy daromad olish mumkin, aksincha kam hosil beradigan, joyining iqlim tuproq sharoitlariga moslashmagan, kassaliklar va zararkunandalar ta'sirga chidamsiz navlari kam hosil beradi va ularni yetishtirish iqtisodiy jihatdan samara bermaydi. Asosan no'xatning "Obod" va "Malxotra" navlarida iqtisodiy samaradorlik xisob kitob ishlari olib borilganda Qashqadaryo viloyati iqlim tuproq sharoitidan kelib chiqib Tajirba maydonida o'rganilgan no'xat navlari uzoq yillar davomida ilmiy-tadqiqot institutlarida, urug'chilik tajirba xo'jaliklarida sinavdan muvoffiqiyatlari o'tgan va ular mo'l hosil beruvchi, tashqi muhit ta'sirga chidamli, kassalik va zararkunandalarga bardoshli navlar ekanligi aniqlandi. Tajriba maydonida o'rganilgan no'xat navlarning sug'orish tartiblari bo'yicha aniqlangan iqtisodiy samarodorligi natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Ushbu jadvalda no'xat navlarini yetishtirish uchun qilingan barcha xarajatlar (urug' narxi, shudgorlash, yerni ekishga taylorlash, ekish, qator oralarga ishlov berish, o'g'it sotib olish va ularni yerga solish, sug'orish, hosilni yig'ishtirib olish, tashish kabi xarajatlar) hisobga olingan.

#### No'xat navlarining sug'orish tartiblari bo'yicha iqtisodiy samaradorligi

No	Var.№	No'xat navlari	Xosildorligi sgra	xosilni yetishtirish xarajatlar, som/ga	No'xat kelgan daromad som/ga	Sof foyda som/ga	Tannarx som/ga	Rentabilitik %
1	Malxotra	24,1	3317000	6025000	2708000	1376	82	
2		25,6	3360000	6525000	3165000	1312	94	
3		25,3	3394000	6325000	2931000	1341	86	
1	Obod	27,2	3340000	6800000	3460000	1228	103	
2		30,0	3385000	7500000	4215000	1128	121	
3		29,0	3400000	7250000	3850000	1172	113	

Xulosa. Quyida keltirilgan no'xat navlari va sug'orish tartiblari bo'yicha qilingan barcha xarajatlar gettariga 3317000-3400000 so'mni tashkil qildi.

Mahsulotni sotishdan kelgan daromadni aniqlash uchun 2022-yilda No'xat ning xarid narxidan (navlar bo'yicha o'rtacha 1200 so'm/kg) foydalanildi. Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar bo'yicha olingan eng ko'p sof foyda tajribada o'rganilgan

no‘xat ning Malxotra sug‘orishlardan oldingi tuproq namligi CHDNS ga nisbatan 70-75-75 % bo‘lib, mavsum davomida 6 marta 600-980 m<sup>3</sup>/ga hisobida sug‘orilganda qayd qilindi.

Bunda no‘xat ning Obod navidan olingan sof foyda 4215000 so‘m/ga, rentabelik darajasi 121%, mahsulotning tanarxi 1128 so‘m/kg bo‘ldi. No‘xatning Malxotra navidan olingan sof foyda 3165000 so‘m/ga, rentablik darajasi 94 %, mahsulotning tannarxi 1312 so‘m/kg ni tashkil qildi.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan 2017-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -104 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoyishi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5742-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo‘jaligida bozor mexanizmlarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 28 fevraldagagi 149-son qarori.
6. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований). -5-е изд., доп. и перераб. -М.: Агропромиздат, 1985. -351 с.

### Internet saytlar

<https://lex.uz/acts/-12328>

<https://staff.tiame.uz/storage/users/109/books/RrM8e0YhAGadTSWYuKDvYwA6dEdP9qRONS7CpWmW.pdf>

<https://staff.tiame.uz/storage/users/91/books/acxk5NgX4lepT03yn8IMsmln4plHVTAt6sJAKfs6.pdf>